

QO'QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 3-son)



IJTIMOIIY FANLAR
SOCIAL STUDIES

TURKISTONDA SOVETLAR TOMONIDAN ISCHI-DEHQON MILITSIYASINI TASHKIL ETILISHI VA TIZIMDAGI MUAMMOLAR

Faxriddin RO'ZIBOYEV,

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

E-mail: faxriddinroziyev62@gmail.com

Tel: (93) 949 03 53

Annotatsiya. Mazkur maqolada 1917-yil fevral oyida Rossiya imperiyasi qulab, uning o'rnida hokimiyatni boshqarayotgan Muvaqqat hukumatning oktabr oyida to'ntarilishidan so'ng boshqaruvni o'z qo'liga olgan sovet hokimiyating siyosiy islohotlari haqida ma'lumot keltirilgan. Sovetlar tomonidan o'rnatilgan yangicha hokimiyatning asosiy qo'riqchisi bo'lmish militsiya idoralarining shakllanishi, hududiy bo'linmalar o'rtasida olib borilgan yozishmalar, militsiya idoralari rahbarlari tomonidan qabul qilingan qaror va farmoyishlar, militsiya xodimlarining lavozim yo'riqnomalari hamda tizimdagi umumiy ahvol va kamchiliklar ilmiy va amaliy, ilmiy-nazariy jihatdan o'rganilgan. Maqolani shakllantirishda mahalliy va rus tadqiqotchilarining asarlari va o'sha davrga oid tarixiy manbalar va arxiv ma'lumotlari birlamchi manba bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: qaror, tartibot, buyruq, militsiya, jinoyat, qoida, ischi-dehqon, tergov.

PROBLEMS IN THE ORGANIZATION AND SYSTEM OF THE WORKER- PEASANT POLICE BY THE SOVIETS IN TURKESTAN

Abstract: This article provides information about the political reforms of the Soviet government, which took power after the collapse of the Russian Empire in February 1917 and the overthrow of the Provisional Government in October. The formation of the police departments, which were the main guardians of the new power established by the Soviets, correspondence between territorial units, decisions and orders adopted by the heads of police departments, job descriptions of police officers, and the general situation and shortcomings in the system are studied scientifically, practically, and scientifically and theoretically. The works of local and Russian researchers, historical sources and archival information of that period serve as primary sources in the formation of the article.

Key words: decision, order, order, police, crime, rule, worker-farmer, investigation.

ПРОБЛЕМЫ ОРГАНИЗАЦИИ И СИСТЕМЫ РАБОЧЕ-КРЕСТЬЯНСКОЙ МИЛИЦИИ ПРИ СОВЕТАХ ТУРКЕСТАНА

Аннотация: В статье представлена информация о политических реформах Советского правительства, пришедшего к власти после распада Российской империи в феврале 1917 года и свержения Временного правительства в октябре. Научно, практически и научно-теоретически изучались формирование отделений полиции, главные блюстители новой власти, установленной Советами, переписка между территориальными подразделениями, постановления и приказы, принятые начальниками отделений полиции, должностные инструкции сотрудников полиции, общее положение и недостатки в системе. При написании статьи в качестве первоисточников использованы труды отечественных и российских исследователей, а также исторические источники и архивные сведения того периода.

Ключевые слова: решение, приказ, распоряжение, полиция, преступление, правило, рабочий-фермер, расследование.

Kirish. Bugungi yangi O‘zbekiston ta’lim tizimi anchayin jadal sur’atlarda rivojlanyapti. Bu esa albatta fanning turli tarmoqlarida ilmiy izlanish olib borib uning rivoji uchun hissa qo‘shayotgan olimlarning mehnatlarining natijasi hisoblanadi. Erkin ilmiy izlanishni esa uzoqni ko‘ra biluvchi rahbarlar ta’minlab beradi. Yurtboshimiz tomonidan shunday erkin ilmiy izlanish uchun yetarlicha sharoit yaratib berilyotganligi bois respublikamizda o‘ziga xos ilmiy muhit shakllanmoqda. Bu jarayonlar tarixchilardan tariximizni yoritishda tinimsiz mehnat va tarixiy jarayonlarga holisona baho berishni talab qiladi. Buni yurtboshimiz ham quyidagi fikrlari orqali ta’kidlaganlar:... Biz shu vaqtgacha tarixning o‘zimizga yoqqan joylarini olib, yoqmagan tomonini yashirib o‘tdik. Birovga yoqadimi-yoqmaydimi, g‘ururimizmi-armonimizmi, muvaffaqiyatmi yo xiyonatmi hammasini haqqoniy yozish kerak[1].

Sovetlar hokumronligi davri tarixini izchil o‘rganishda ham bunga alohida e’tibor qaratish lozim. Ma’lumki fevral to‘ntarishidan so‘ng hokimiyatni vaqtinchalik boshqarib turgan Muvaqqat hukumati bolsheviklar tomonidan oktabr oyida tugatiladi. Sovet mutasaddilari ham o‘z o‘tmishdoshlari singari harbiy kuchga tayanadi va tartib o‘rnatuvchilar faoliyati bilan bog‘liq turli xil islohotlar o‘tkazadi. Ushbu islohotlar negizida mahalliy aholini yanada qattiq itoatda saqlab turish maqsad qilingan edi. Go‘yoki yerli xalq vaziyatdan foydalanib mustaqil bo‘lib olishi mumkin edi shuning uchun ham sovet mutasaddilari tartibot organlari ya’ni militsiya idoralariga suyanishni lozim ko‘rdi. Turkiston general-gubernatorligi davrida

Sovetlar tomonidan militsiya avvalo ularning mafkura himoyachisiga aylantirildi. Undan ishchilar hokimiyatini himoya qilish quroli sifatida foydalanildi. Xususan ularning yo‘lboshchisi V.I. Lenin mahalliy qurollangan militsiya otryadlari nafaqat armiya balki mudofaa va hujm qilishda foydalanish mumkin bo‘lgan qurolli tashkilotlar ekanligini ta’kidlagan[2; c-45]

- **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review).** Mavzuga oid adabiyotlarni 3 guruhga ajratib o‘rganish maqsadga muvofiq. Birinchi guruh adabiyotlar aynan mavzuga taalluqli bo‘lib, tarixchi tadqiqotchi olimlar tomonidan olib borilgan izlanishlar natijasi

hisoblanadi. Jumladan, Арипов Р., Мильштейн Н larning “Из истории органов госбезопасности Узбекистана” kitobida O‘zbekiston davlatchilik tarixidagi huquqni muxofaza qiluvchi organlarning faoliyati bilan bog‘liq ma’lumotlar keltirilgan. Ерметов А ning “Ўзбекистонда ички ишлар органлари фаолияти” nomli monografiyasida ko‘proq ishchi-dehqon militsiyasi tarixiga e’tibor qaratilgan. Ushbu kitobda militsiyaning tashkil topishidan to rivojlangunicha bo‘lgan davr qamrab olingan. Джалилов Т. А ning “На страже народных интересов”, Еропкин М ning “Развитие органов милиции в Советском государстве” nomli asarlari sovet davri militsiya organlarining tashkil etilishi bilan bog‘liq bo‘lgan tarixiy siyosiy jarayonlarni o‘zida aks ettiradi.

Ikkinchi guruh adabiyotlariga mazkur davrda qabul qilingan hukumat qarorlari, farmoyishlari va ichki ishlar organlari tomonidan qabul qilingan buyruqlar to‘plamlari tadqiqot olib borishda muhim manba hisoblanadi.

Uchinchi guruhga O‘zbekiston Milliy arxivi, Samarqand va Farg‘ona viloyat davlat arxivlarida saqlanayotgan mazkur mavzuga taalluqli bo‘lgan ma’lumotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

- **Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Sovet hokimiyati tomonidan Turkistonda ishchi-dehqon militsiyasining tashkil etilishi va tizimdagi muammolarni tadqiq etishda davr nuqtayi nazaridan ilmiy tadqiqot olib borishning tarixiy qiyosiy tahlil usulidan foydalanildi. Chunki, aynan shu davrda Rossiyada podsholik monarxiyasi qulab, hokimiyat sovetlar qo‘liga o‘tgan edi ba’zi o‘rinlarda podsho Rossiyasi davridagi politsiya tizimi bilan sovetlar hukmronligi davridagi militsiya tizimini taqqoslash zarurdir.

- **Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Bugungi globallashuv zamonida insoniyatga qulay sharoitlar bilan birgalikda uni yo‘ldan adashtiruvchi, ozod hayotini kishanlarga almashtiruvchi xavflar har qanday davlatda mavjud. Bunday xavflarni oldini oluvchi tartib o‘rnatuvchi organlar borligi insonlarni qalbini hotirjam qiladi. Ichki ishlar organlarining faoliyati ham aynan shunga yo‘naltirilgan. Tarixiy jarayonlarni tizimli o‘rganishda albatta bu sohaning ham tarixini o‘rganish foydadan holi bo‘lmaydi.

XX asning birinchi yarmida Turkiston hududida ko‘plab siyosiy jarayonlar yuz berdi. Buning natijasida hokimiyat tepasiga o‘rta sinf vakillarini manfaatlarini himoya qiluvchi sovetlar keldi. Ular ham hokimiyatining asosiy suyanchisi sifatida tartibot organlarini ko‘rishdi va tez orada Turkiston general-gubernatorligi davridagi politsiya tizimini ishchi va dehqonlar manfaatini himoya qiluvchi va sovet mafkurasining qo‘riqchisi ischi-dehqon militsiyasiga almashtirdi.

Hukumat tomonidan hududlarda militsiya bo‘limlari tashkil etila boshlandi. Bo‘limlarni kerakli xodilar bilan to‘ldirish uchun esa ishga qabul qilish bo‘yicha e’lonlar bera boshlandi. Masalan, quyidagi e’londa Turkiston Respublikasi militsiya bosh instruktori lavozimiga militsiya xizmatidan xabardor shaxs talab qilinadi. 850 rubl miqdorida ish haqi talab qilinadi qisqacha hayot tavsifi va Sovet partiyasidan nomzod to‘g‘risidagi tavsiyanoma taqdim etilishi kerakligi yozilgan[3; b-9].

Ko‘rinib turibdiki, militsiya idorasiga ishga qabul qilishda sinfiylik tamoyillariga asosiy e‘tibor qaratildi. Ishga qabul qilinuvchilar asosan dexqon va ishchilardan bo‘lsa rag‘bat bildirildi. Buning natijasida militsiya tizimida kasbga noloyiq savodsiz xodimlar paydo bo‘la boshladi[4; b-22].

1918-yilning 28-29-yanvar kunlari Turkiston Respublikasi xalq komissarlari sovetining umumiy yig‘ilishida Turkistonda militsiya idoralarini tashkil etish hamda uni kerakli xodimlar bilan to‘ldirish masalasi ham ko‘rilgan. Xuddi shu kuni “Turkistonda militsiya idoralarini tashkil qilish” borasida Turkiston xalq komissarlarining buyrug‘i ham e‘lon qilindi[5; c-7].

Shunday tarzda Turkistonda general-gubernatorlikning politsiya tizimi militsiya qilib qaytadan tashkil etila boshlandi. 1918-yilning oktabr oyiga kelib, 1907-1917-yillarda faoliyat yuritib ko‘pgina begunoh insonlarning qamalishiga sabab bo‘lgan Turkiston rayon muxofaza bo‘limi o‘rniga sovet mafkurasiga asoslangan jinoyat qidiruv bo‘limlari tashkil etila boshlandi. Ularning faoliyat doirasi 40 ming kishi yashaydigan hudud bilan chegaralandi[6; c-21].

1919-yilning yoziga kelib esa Turkiston avtonom sovet respublikasida ishchi-dehqon militsiyasini tashkil etish bo‘yicha Nizom qabul qilindi. Aynan shu Nizomga muvofiq ishga qabul qilinuvchi nomzodlarning Yoshi ilgarigidek 23 emas 21 yosh qilib belgilandi. Bundan ko‘rinib turibdiki, militsiya idoralarini kerakli xodimlar bilan to‘ldirishda muammolarga duch kelingan shuning uchun qamrov chegarasi kengaytirilgan.

Turkiston ASSRning boshqa viloyatlarida ham sovet militsiyasini tashkil etish ishlari jadallik bilan olib borildi. Mazkur hududlarda militsiya tuzilmalarini tashki qilish uchun sabab sifatida ushbu hududlarda kechayotgan siyosiy ziddiyatlar ko‘rsatildi. Xususan, 1918-yil 22-yanvarda Eski Marg‘ilonda Madaminbek va Soli Maxsum qo‘rboshiga aylanishdi va ular militsiya bilan qarama qarshi bo‘lib qolishdi. Natijada sovet rahbarlari Farg‘onada militsiyani kuchaytirish borasida ishlar olib bora boshladi[7; b-168].

1921-yil 29-noyabr kuni Turkiston Markaziy Ijroiya Qo‘mitasi tomonidan Farg‘onda militsiya bo‘limlarini tashkil etish to‘g‘risida № 133 sonli qaror qabul qilindi. Mazkur qarorga muvofiq Farg‘onada militsiya idoralarni tashkil etishning asosiy sababi so‘ngi vaqtlarda ularning ta‘biri bilan aytganda “bosmachilar”ning harakatlari faollashgani ekani ta‘kidlandi. Shuningdek, qarorda quyidagilar ta‘kidlandi:... “Bosmachilar”ni tezda yo‘q qilishning muvaffaqiyati bu kurashga Farg‘ona mehnatkashlari, proletar va yarim proletar unsurlardan tarkib topgan militsiya xodimlarini jalb qilish zarurligini taqozo etadi. Tashki qilingan militsiyaning asosiy vazifasi Farg‘onada qishloqlarni himoya qilish va mayda jangari to‘dalarni yo‘q qilishdan iborat bo‘lishi kerak. Militsiyani tashkil qilishda quyidagilarga amal qilinsin:

- Militsiyani tashkil etish, militsiyani tashkil etish zarur deb hisoblangan u yoki bu sohalarda Sovet hokimiyati uchun mos keladigan qulay siyosiy vaziyatdan kelib chiqishi kerak.

- Militsiya kadrlari, asosan, “Qo‘shchi” uyushmasi a‘zolari va kasaba uyushmalarining boshqa a‘zolaridan hamda “bosmachilar”dan jabr ko‘rgan mehnat vakillaridan, asosan, ishga qabul qilinadigan joylarga yaqin hududda yashovchilardan shakillantirilsin.

- Militsiyaning qochqinlardan “bosmachi”ga nisbatan barqarorligini oshirish uchun militsiya xodimlarini mehnat elementlaridan, shuningdek, militsiya xodimlarining o‘zlari va qo‘shimcha ravishda militsiya xodimlarini qayta tashkil etish uchun maxsus tuzilmalari tashkil etilgan tumanlar kasaba uyushmalari, kasaba uyushmalari va qo‘mitalari o‘zaro kafolatlash yo‘li bilan yollash zarurligi ta’kidlandi[8; c-73].

Samarqand viloyati militsiya ishi ham aynan shunday qurolli vaziyatlar sabab isloh qilinadi. Jumladan, 1921-yil 6-sentabrda Samarqanda viloyati boshqarmasi vakillarining umumiy yig‘ilishi o‘tkazildi bunda viloyat militsiyasi umumiy ahvoli va uni yaxshilash borasida quyidagi takliflar keltirildi:

Militsiya ta’minot darajasi yomon holatda bo‘lib, otlar yetishmaydi borlari uchun yem hashak yetishmaydi. Militsiya xodimlarining kiyim-kechaklari og‘ir ahvolda. Militsiya xodimlari yozda yalangoyoq yurishga majbur sababi bu yil yozda atigi 20 dona kiyim kechak berildi. Shuningdek, militsiyaning maoshlari vaqtida to‘lanmaydi. Xodimlar yetishmasligi bilan bog‘liq muammolar ayniqsa O‘ratepa uyezdida ko‘zga yaqqol tashlanadi. Ushbu muammolar tinglangandan so‘ng militsiya ta’minot tizimini harbiy ta’minotdan shahar hokimiyatiga o‘tkazishga qaror qilindi. Tumanlarda “bosmachilik” harakati bilan kurashga jiddiy e’tibor qaratish, buning uchun politsiyaning jangovar samaradorligini oshirish uchun barcha choralarni ko‘rish, buning uchun otryadni tashkil qilishni tezlashtirish taklif etildi. Viloyat ichki ishlar organlari va uning tumanlari bo‘linmalarining Samarqand shahrida ham, tumanda ham, mahalliy miqyosda ham barcha ishlari harbiy soha hisoblanishi, bunda xizmatni o‘tayotgan eng yuqori bo‘linmadan tortib to quyi bo‘linmagacha intizomni saqlashni, bo‘ysunmagan taqdirda ularni barcha oqibatlar bilan javobgarlikka tortishni talab qilish kerakligi ta’kidlandi[9; b-181].

Samarqand viloyati jinoyat qidiruv bo‘limi boshlig‘ining quyidagi hisoboti butun Turkistondagi militsiya tizimining ahvoli haqida tasavvur hosil qilishga yordam beradi:... Samarqand viloyati jinoyat qidiruv boshqarmasi boshlig‘i hisobotiga ko‘ra, bo‘lim unga juda o‘ziga xos vaziyatda topshirilgan, ya’ni: jinoiy qidiruv bo‘limi nafaqat rus aholisi, balki mahalliy aholi orasida ham hech qanday obro‘ va hurmatga ega emas, aksincha, yaxshi tavsif o‘rniga, aholidan ko‘pincha jinoyat qidiruv bo‘limi xodimlariga nisbatan qo‘pol haqoratlarni eshitishingiz mumkin, va buning sababi ba’zi xodimlar poraxo‘rlik uchun sudga tortilgan, ba’zilari ishdan butunlay ozod qilingan, ba’zilari esa o‘zlariga nisbatan yuzaga kelgan ishlar bo‘yicha sudga tortilishi ko‘zda tutilgan. Shuningdek, bo‘limning o‘zida mebellar deyarli yo‘q uni sotib olish uchun esa mablag‘ ajratilmaydi. Xodimlarning uyida ham mebel yo‘q uni kerakli jihozlarni sotib olishga ularning puli yo‘qligi sababli ko‘p hollarda ular pora olishga majbur bo‘lishardi. Xodimlar unchalik katta bo‘lmagan maosh oladi, lekin shuni ham barcha to‘liq olmaydi masalan, 25-noyabr kuni faqat 25 kishiga berilgan. Bo‘linma uchun har kuni oziq-ovqat sarflanadi va jangovar bo‘linma sifatida jinoiy tergovning puli oyiga atigi 900 rubl ajratiladi va shunga qaramay ratsiondan boshqa hech narsa berilmaydi. Forma bo‘yicha, men aytaman. Xodimlar yozgi kiyimlar bilan ta’minlanga xolos qishki kiyim esa yo‘q. Shu sababli

qishda yomg‘irli va qorli kunlarda ishlash jinoyatchilarni ushlash ancha qiyinchilik tug‘diradi[10; b-2].

Bunday muammolar nafaqat Samarqandda balki respublikaning barcha hududlarida kuzatilar edi. Shuning uchun ham militsiya tarkibini to‘ldirish dastlabki yillarda anchayin mushkul bo‘ldi.

- Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng tarixning barcha qirralarini o‘rganish va holisona yoritishga imkoniyat yaratildi. Sovet davlati o‘z davrining tarixchi va siyosatchilari tomonidan qanchalar maqtab ko‘klarga ko‘tarilgan bo‘lsada shu erkinlik uning aslida unday emasligini sovet ijroiya organlaridagi kamchiliklar yetarlicha ekanligini ko‘rish mumkin. Hokimiyatning saqlab turishning birdan bir yo‘li harbiy kuch, mahalliy xalqlarni tartibsizlik qilishini oldini olish vositasi esa, ichki ishlar organlari ekanligini anglagan holda ushbu tizimning qoloqlashishiga yo‘l qo‘yib bergan sovetlar aslida unchalik kuchli davlat tuza olmaganliklarini tarixiy faktlar ko‘rsatib turibdi.

Bu davr tarixini yanada yorqinroq va yanada izchilroq yoritish uchun mazkur davrga tegishli arxiv hujjatlarini o‘rganishda ichki ishlar idoralari bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yilsa maqsadga muvofiq bo‘lardi.

ADBIYOTLAR

1. Mirziyoyev SH. M. 2021-yil 31-avgustdagi Shahidlar xotirasi xiyobonidagi “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeyiga tashrifi nutqidan.
2. Арипов Р., Мильштейн Н. Из истории органов госбезопасности Узбекистана. (Документальные очерки истории 1917-1930 гг.). – Тошкент., «Узбекистан». 1967. – 184 с.
3. O‘zbekiston Milliy arxivi R-39 fond, 1-ro‘yxat, 57-ish, 9-varaq.
4. Ерметов А. Ўзбекистонда ички ишлар органлари фаолияти. – Тошкент., 2018. – 239 с.
5. Джалилов Т. А. На страже народных интересов. – Тошкент., 1963. – 79 с.
6. Еропкин М. Развитие органов милиции в Советском государстве. – Москва., 1967. – 87 с.
7. Farg‘ona viloyat davlat arxivi 328-fond, 1-ro‘yxat, 12-ish, 168-varaq.
8. Сборник. Туркестанский центральный исполнительный комитет (декретов, постановлений, приказов и распоряжений) №1194 – Ташкент., «Тгиз». – 1921 – 455 с.
9. Samarqand viloyat davlat arxivi 767-fond, 1-ro‘yxat, 41-ish, 181-varaq. 10. Samarqand viloyat davlat arxivi 767-fond, 1-ro‘yxat, 15-ish, 2-varaq.